

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA 2030- YILGA QADAR MAMLAKATIMIZDA GENDER TENGLIKKA ERISHISH STRATEGIYASINING AHAMIYATI

Mamajanova Shaxnoza

Andijon davlat pedagogika insituti

Ijtimoiy- gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)

yo'nalishi 2-Bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ko'lami beqiyosdir. Har bir sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, gender munosabatlar va ayollar masalasi eng dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ayollar masalasi ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, ularning turmush tarzi, ongi va tafakkuriga, dunyoqarashi, madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ommaviy madaniyat va "Ommaviy madaniyat" nafaqat ayollarni balki jamiyatimozdagi har bir insonlarga o'zining salbiy va ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Mazkur tezis orqali biz jamiyatimizda xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor va ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, bosqichli islohotlar va 2030- yilga qadar Yangi O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Gender tenglik, "Ommaviy madaniyat", Ommaviy madaniyat, strategiya.*

Gender munosabatlar bu ayollarning jamiyatda erkaklar bilan birgalikda teng huquq va imkoniyatga ega deganidir. Bu nafaqat O'zbekistonda bali xalqaro hamyamiyatdagi barcha davlatlarda kata e'tibor va imkoniyat demakdir.

"Gender" tushunchasi [feministik](#) nazariya va [gendershunoslilikning](#) rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. U ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ularning bir qator vakillari (asosan feministik mualliflar) odamlar o'rtasidagi farqlarning tabiiy kelib chiqishini shubha ostiga qo'yadilar va ularni ijtimoiy jarayonlar bilan izohlaydilar.⁸⁴

BMT ning ayollar va qizlar kamsitilishiga qarshi bir qator huquqiy hujjatlar, qonunlar hukumatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan. BMT e'tirofiga ko'ra bugungi kunda xotin-qizlar jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni, ishtiroki kengayib, ayniqsa o'zbek ayollarining qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda ishtiroki kengayib borganligi keng yoyilgan. O'zbekistonda xotin- qizlarning huquqlarini himoya qilishda huquqiy qonun qoidalarning mustahkamlashga keng e'tibor berilmoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak, 2019- yil sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi

⁸⁴ http://www.owl.ru/win/books/articles/tz_gender.htm

yaqqol isbot bola oladi. Konstitutsiya va xalqaro standartlardagi normalarni amalga oshirish mexanizmi bo'lgan 2021-yil 28- mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi strategiyada mamlakatimizning 2030-yilgacha gender tenglikka erishi kerak bo'lgan maqsadli ko'rsatgichlar belgilandi.

"Avvalo onangizga va yana bir bor onangizga yaxshilik qiling", degan muborak hadisga amal qilib, mo''tabar onalarimiz, qadrli opa-singillarimiz, dilbar qizlarimizga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni insoniy burchimiz, deb bilamiz. Hazrat Mir Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, Sizlarning oldingizdagi bu qarzimiz haqqini, ming xazina bilan ham ado etib bo'lmaydi. Biz yaxshi tushunamiz – xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda albatta tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi. Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo'ladi."⁸⁵

Bu kabi islohotlar Yangi O'zbekistonda demokratik davlatni mustahkamlagan holda fuqarolik jamiyatini qurish sari tashlanayotgan muhim qadam hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish dasturlari ishlab chiqarilgan bo'lib, amaliyotga sekin astalik bilan tadbir etilmoqda. Mamlakatimizda so'ngi yillarda xotin-qizlarning jamiyat va davlat ishlarida teng ishtirok etishini ta'minlash, ularni har taraflama ijtimoiy qo'llab quvvatlash, shuningdek turli xil shakildagi, mazmundagi, maishiy zo'ravonliklardan himoyash bo'yicha keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda.

Gender tengligi masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib sohaga doir 25 dan ortiq qonun xujjatlari qabul qilingan. Yurtimiz tarixida ilk bor parlamentdagi ayollar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos ravishda 32 foizga yetkazildi. Dunyodagi 190 ta partament orasida 37 o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy o'sishni jadal rivojlantirish va mehnat bozoriga kirayotgan xotin-qizlarni iqtisodiy faollik bilan qamrab olish uchun ishbilarmonlik, investitsion muhitni yaxshilashga alohida e'tibor berib borilmoqda.

Strategiyaga ko'ra, xotin-qizlarning iqtisodiy resurslardan, shuningdek erkin tanlab olingan tadbirkorlik faoliyati turlaridan keng foydalanish huquqi qo'llab quvatlandi. Yurtimizning chekka va uzoq hududlarida xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash bo'yicha dasturlar yanada takomillashtirildi. Ayollarning bandlik va mehnat bozoridan foydalanish huquqini kengaytirish uchun maktabgacha va boshlang'ich maktab ta'limining hammabopligini oshirishga e'tibor qaratiladi. Ularning moliyaviy bilim va malakalarni rivojlantirish hamda kengaytirish, moliyaviy

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 06.03.2021. <https://president.uz/oz/lists/view/4212>



insitutlarning barcha xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratish, shuningdek, banklar va kreditlar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish, imtiyozli kreditlarni joriy etish ustida ish olib borilmoqda.

Umuman olganda, Yurtimizda gender sohasidagi o'zgarishlarning huquqiy va insitutsional asoslari keng targ'ib qilinmoqda. O'zbekistonda gender siyosatini har jihatdan amalga oshirishda davlat organlari va xotin-qizlar tashkilotlari birgalikda harakat qilinmoqda. Respublikamizda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda rasmiyatchilikdan aniq sa'y-harakatlarga o'tilganligi, ya'ni xotin-qizlarning jamiyat hayotida, ta'limda shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqilganligi, xotin-qizlar faoliyatlarini amalga oshirishda va jamiyat hayotini monitoring qilishning barcha bosqichlarida samarali ishtirok etishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

“Gender” tushunchasi [feministik](#) nazariya va [gendershunoslilikning](#) rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. U ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ularning bir qator vakillari (asosan feministik mualliflar) odamlar o'rtasidagi farqlarning tabiiy kelib chiqishini shubha ostiga qo'yadilar va ularni ijtimoiy jarayonlar bilan izohlaydilar.⁸⁶

Xalqaro hamjamiyat xotin-qizlarning insoniyat taraqqiyotida o'rini to'g'ri anglagan holda xalqaro mexanizmlarni yaratishga ham alohida e'tibor berilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979-yil 18-dekabrda “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi konvensiyaning qabul qilingnligi fikrimizning dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yilgi tahriri)
- 2.O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 01.09.1998
- 3.Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son
- 4.2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
5. Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. Xalqaro ilmiy jurnali. 2022-1 son
- 6.Gender tadqiqotlari platformasi veb-sayti; <https://uzgender.uz>

⁸⁶ http://www.owl.ru/win/books/articles/tz_gender.htm